




QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot
2023- yil yanvar-fevral*



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI




Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023- yil 1- mart holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **2862** tani tashkil etib, 2022- yil 1- martga nisbatan 13 taga oshgan (o'sish sur'ati 100,5 %). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 89 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2773 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTLar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023- yilning yanvar-fevral oylarida respublikaning chakana savdo tovar aylanmasi **1238,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **100,2** % ga yetdi.

Shumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **67,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **178,5** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **1170,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **97,7** %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **155,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **105,0** %) tashkil etdi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. So'm	2022- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1238,1	100,2	67,2	178,5	1 170,9	97,7
Nukus shahri	252,3	115,5	11,6	139,1	240,7	114,5
tumanlar:						
Amudaryo	106,2	97,7	2,7	65,9	103,5	98,9
Beruniy	77,4	94,2	5,5	132,5	71,8	92,1
Bo'zatov	14,5	95,6	0,0	84,3	14,4	95,6
Qorao'zak	52,7	83,2	0,2	110,4	52,5	83,1
Kegeyli	31,2	81,4	0,2	74,5	31,0	81,4
Qo'ng'iro't	94,7	97,0	2,4	73,0	92,3	97,9
Qonliko'l	47,2	102,6	0,1	34,4	47,1	102,9
Mo'ynoq	12,8	93,6	0,1	73,2	12,7	93,7
Nukus	38,6	100,8	0,1	58,8	38,4	101,1
Taxiatosh	65,4	156,8	32,6	830,8	32,9	86,9
Taxtako'pir	40,8	93,5	0,1	77,3	40,6	93,5
To'rtko'l	141,8	99,0	5,5	97,6	136,3	99,1
Xo'jayli	106,2	91,8	2,1	73,9	104,1	92,3
Chimboy	59,3	93,1	1,6	92,1	57,7	93,1
Shumanay	26,5	90,5	0,1	55,7	26,4	90,7
Ellikqal'a	70,7	91,7	2,2	99,3	68,4	91,5

2023- yilning yanvar-fevral oylarida 2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan respublikaning Nukus shahri (**115,5 %**), Taxiato'sh (**156,8 %**), Nukus (**100,8 %**) va Qonliko'l (**102,6 %**) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

TUMAN KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Chakana savdo aylanmasining o'zgarish sur'atlari,
foizda




2023- yilning yanvar-fevral oylarida o'sish sur'ati 98,6 % ni tashkil qildi.

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **1170,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022 yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **97,7** % ga kamaydi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **94,6** % ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atga ega hududlar (foizda)



Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **78,5** % ga o'sdi va **67,2** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **5,4** % ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)

Nukus shahri	4,6	95,4
Ellikqal'a	3,1	96,9
Shumanay	1,4	
Chimboy	2,7	97,3
Xo'jayli	2,0	98,0
To'rtko'l	3,9	96,1
Taxtako'pir	1,4	99,6
Taxiatosh	49,8	50,2
Nukus	1,4	99,6
Mo'ynoq	1,5	99,5
Qonliko'l	1,2	
Qo'ng'iro't	2,5	97,5
Kegeyli	1,7	99,3
Qorao'zak	1,4	99,6
Bo'zatov	1,3	99,7
Beruniy	7,2	92,8
Amudaryo	2,5	97,5

■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qorao'zak (99,6 %), Bo'zatov (99,7 %) va Qonliko'l (99,8 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo Tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 5,4 % ni tashkil etib, eng katta ulush Taxiato'sh (49,8 %), Beruniy (7,2%), Nukus shahri (4,6%) va To'rtko'l (3,9%) tumanlarida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot


	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	630,9	98,8
Nukus shahri	760,3	113,6
tumanlar:		
Amudaryo	513,7	96,0
Beruniy	388,3	92,6
Bo'zatov	664,7	95,6
Qorao'zak	977,6	82,4
Kegeyli	422,4	80,8
Qo'ng'iro't	708,3	95,9
Qonliko'l	893,3	101,2
Mo'ynoq	384,3	92,2
Nukus	735,9	99,1
Taxiatosh	862,1	155,1
Taxtako'pir	1 024,1	95,1
To'rtko'l	636,5	97,4
Xo'jayli	840,0	90,8
Chimboy	517,7	92,5
Shumanay	462,7	89,7
Ellikqal'a	425,2	90,1

2023- yilning yanvar-fevral holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **630,9** ming. so'mni (2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **98,8** %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm **Taxtako'pir (1024,1** ming. so'm), **Qorao'zak (977,6** ming. so'm) va **Qonliko'l (893,3** ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Respublika bo'yicha 2023- yilning yanvar-fevral oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **155,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **105,0** % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **87,8** mlrd. so'mni (117,9 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **67,3** mlrd so'mni tashkil etdi (**119,8** %).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)




Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)



UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	155,2	105,0	87,8	117,9	67,3	119,8
Nukus shahri	21,4	145,3	8,8	118,9	12,6	225,0
tumanlar:						
Amudaryo	12,4	155,9	6,1	152,5	6,3	210,9
Beruniy	15,2	138,9	7,0	127,3	8,2	198,8
Bo'zatov	3,0	101,3	2,4	163,2	0,6	50,9
Qorao'zak	5,4	42,4	3,1	48,2	2,3	47,7
Kegeyli	4,6	34,3	3,0	44,1	1,6	31,4
Qo'ng'iro't	12,0	140,2	9,2	214,0	2,8	87,0
Qonliko'l	9,3	190,7	4,7	186,3	4,6	244,7
Mo'ynoq	1,7	93,6	1,7	93,6	0,0	
Nukus	10,3	130,4	6,9	172,5	3,4	113,6
Taxiatosh	3,2	55,1	2,0	69,0	1,2	54,5
Taxtako'pir	7,3	100,6	5,0	138,9	2,3	82,1
To'rtko'l	26,8	130,1	12,2	117,3	14,6	186,6
Xo'jayli	7,4	83,0	5,0	111,1	2,4	69,3
Chimboy	8,4	86,4	5,9	120,4	2,5	67,2
Shumanay	3,7	81,8	2,2	95,1	1,5	90,2
Ellikqal'a	3,2	62,4	2,7	102,2	0,5	28,2

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;











– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning yanvar-fevral oylarida respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **87,8** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**43,7** mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		Mrd. so'm
	Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari	43,7
	Non va non mahsulotlari	7,6
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	7,2
	Tovuq go'shti	5,2
	Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)	4,0
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...)	5,6
	Tuxum	4,3
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak	3,6
	Ziravorlar	2,4
	Tuzlamalar	3,0
	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi)	1,2
	Nooziq-ovqat tovarlari	-

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023- yilning yanvar-fevral oylarida respublikaning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **67,3** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **53,5** mlrd.so‘m, qo‘y va echkilar – **11,8** mlrd. so‘mni, otlar – **1,4** mlrd. so‘mni, parrandalar – **0,6** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mrld. so‘m
	2 yoshdan kata bo‘lgan qoramollar	27,7
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	11,8
	1 yoshgachah bo‘lgan yosh mollar	14,0
	Qo‘ylar	7,2
	Otlar	1,4
	Echkilar	4,6
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	0,4
	Tovuqlar	0,2
	Quyionlar	-
	Qushlar	-

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023- yil 1- mart holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni **1017** tani tashkil etib, 2022- yil 1 – mart holatiga nisbatan **1** taga oshgan va o'sish sur'ati **100,0** % tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **1** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **1016** tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar-fevral oylarida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasining ulushi **2,6%** ni tashkil etib, **32,1** mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **86,1%** ga kamaydi. Bunda savdo aylanmasining **99,6%** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	32,1	86,1	0,1	8,1	32,0	89,6
Nukus shahri	12,6	88,3	0,1	126,7	12,5	88,1
tumanlar:						
Amudaryo	1,5	89,9	-		1,5	89,9
Beruniy	1,0	89,5	-		1,0	89,5
Bo'zator	0,1	90,4	-		0,1	90,4
Qorao'zak	0,9	91,3	-		0,9	91,3
Kegeyli	0,4	91,9	-		0,4	91,9
Qo'ng'iro't	8,0	77,4	-		8,0	90,7
Qonli'ko'l	0,4	90,9	-		0,4	90,9
Mo'ynoq	0,1	88,7	-		0,1	88,7
Nukus	0,3	90,4	-		0,3	90,4
Taxiatosh	0,8	89,9	-		0,8	89,9
Taxtakop'ir	0,2	96,2	-		0,2	96,2
To'rtko'l	2,1	91,6	-		2,1	91,6
Xo'jayli	1,9	90,1	-		1,9	90,1
Chimboy	0,9	91,1	-		0,9	91,1
Shumanay	0,2	91,3	-		0,2	91,3
Ellikqal'a	0,8	89,9	-		0,8	89,9

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- mart holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish) **210,2** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tkan yilning mos davriga nisbatan **77,5%** ga kamaydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **88,6** mlrd. so'm (o'sish sur'ati- **79,9%**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektлари savdo hajmi – **121,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **73,5 %**) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'ish sur'ati, foizda



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi




Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	210,2	100,0
Nukus shahri	138,5	65,9
tumanlar:		
Amudaryo	0,4	0,2
Beruniy	51,5	24,5
Bo'zatov	-	-
Qorao'zak	0,2	0,1
Kegeyli	12,6	6,0
Qo'ng'iro't	0,5	0,2
Qonliko'l	0,2	0,1
Mo'ynoq	0,2	0,1
Nukus	-	-
Taxiatosh	1,0	0,5
Taxtako'pir	0,1	0,1
To'rtko'l	2,6	1,2
Xo'jayli	0,6	0,3
Chimboy	0,5	0,2
Shumanay	0,0	0,0
Ellikqal'a	1,3	0,6

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Nukus shahri (**138,5** mlrd. so'm), Beruniy (**51,5** mlrd. so'm) va Kegeyli (**12,6** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o'z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o'zgartirmagan holda jo'natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to'lanadigan yoki to'lanmaganligidan qat'iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'mda



7,5

Respublika bo'yicha 2023- yilning yanvar-fevral oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **282,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **90%** ni tashkil qildi.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **244,8** mlrd. so'mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **91,4 %**ga to'g'ri keldi. Respublikada ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **86,6 %** ni tashkil qildi.


ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga eng yirik korxonalar Taxiato'sh tumanida (98,7%) va Nukus shahrida (38,1%) kuzatildi.

2023- yil 1- mart holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **1014** tani tashkil etib, 2022- yil 1- mart holatiga nisbatan **4** taga kamaygan, o'sish sur'ati **99,6 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **7** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **1007** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	282,8	90,0	37,9	82,1	244,8	91,4
Nukus shahri	128,8	90,4	4,7	38,1	124,1	95,4
tumanlar:						
Amudaryo	7,2	101,8	-	-	7,2	103,9
Beruniy	17,6	82,1	-		17,6	82,1
Bo'zatov	0,6	87,8	-		0,6	87,8
Qorao'zak	3,8	85,2	-		3,8	85,2
Kegeyli	1,1	65,8	-		1,1	65,8
Qo'ng'iro't	11,9	82,9	-		11,9	82,9
Qonliko'l	5,1	79,5	-		5,1	79,5
Mo'ynoq	3,4	117,4	-		3,4	117,4
Nukus	9,6	79,4	-		9,6	79,4
Taxiato'sh	40,8	97,2	33,2	98,7	7,6	91,3
Taxtako'pir	2,7	88,0	-		2,7	88,0
To'rtko'l	21,9	87,7	-		21,9	87,7
Xo'jayli	7,1	82,3	-		7,1	82,3
Chimboy	7,5	115,4	-		7,5	115,4
Shumanay	0,3	115,6	-		0,3	115,8
Ellikqal'a	13,5	87,4	-		13,5	87,4



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.: 61 222-67-45**